Jizzax davlat Pedagogika instituti
TARIX FAKULTETI

TARIX VA JAMIYAT

HISTORY AND SOCIETY
ИСТОРИЯ И ОБЩЕСТВО
общественный электронный
ЖУРНАЛ

JOURNAL
2022

№3

Bosh muharrir:
Pardaev A.H. JDPI, tarix fakulteti dekani, t.f.n. dosent.

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Aqchaev F.Sh. JDPI, tarix fakulteti, t.f.b.f.d. (PhD), dosent.

Mas'ul kotiblar:
Saidov J.O. JDPI, Tarix fakulteti o‘qituvchisi
Xo‘janova M. JDPI, Tarix fakulteti o‘qituvchisi

Tahririyat a'zolari:
1. Sagdullaev A.S. – tarix fanlari doktori, Akademik,
2. Ahmedshina F.A. – tarix fanlari doktori, professor,
3. Shodmonova S.B. – tarix fanlari doktori, professor,
4. Ochilova B.M. – falsafa fanlari doktori, professor,
5. Choriev S. – falsafa fanlari doktori, professor,
6. Tulenova G. J. – falsafa fanlari doktori, professor,
7. Pardaev M.H. – tarix fanlari doktori, dosent,
8. G‘oyibov B.S. – tarix fanlari doktori (DSc), dosent,
9. Yarmatov R. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dosent,
10. Saidqosimov A.I. – f.f.b. fan doktori (DSc), dosent,
11. Amanullaev A. – f.f.b. fan doktori (PhD), dosent,
12. Toshboev F.E. – tarix fanlari bo‘yicha fan doktori (PhD), dosent,
13. Mirkomilov B. – tarix fanlari nomzodi, dosent,
14. Saidov M. – falsafa fanlari nomzodi, dosent,
15. G‘ofurov J. – tarix fanlari bo‘yicha fan doktori (PhD), dosent,
16. Hoshimxonov M.X. – f.f.b. fan doktori (DSc), dosent
17. Valiev A.X. – katta o‘qituvchi,
18. Majidov A.S. – katta o‘qituvchi,
19. Karimova N. – o‘qituvchi,

AMIR TEMURNING HARBIY YURISHLARI TARIXI: USMONIYLAR IMPERIYASIGA QARSHI “ANQARA JANGI”

Tilovboyev Muhammad
JDPI, Ijtimoiy gumaitar fanlardan masofaviy ta'lim kafedrasi
Umarova Dinara Abdixoliq qizi
JDPI, Tarix 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Sohibqiron Amir Temurning tug’ilishidan boshlab, harbiy va siyosiy mardonga kirib kelishi hamda mamlakat sarhadlarini kengaytirish asnosida olib borgan zafarli yurishlari, bu harbiy jangler ichida “Anqara jangi” ning o’rni xususida muallif tomonidan umumiy tahlil amalga oshirilgan.

Kalit so’zlar: Amir Temur, Anqara janggi, Boyazid Yildirim, Yevropa, sarkarda, ilm-fan, madaniyat, Kesh, Nasaf, “yetti yillik” jang, “uch yillik” jang, “besh yillik” jang, Chig’atoy ulusi.

To‘liq ismi Amir Temur Ko‘ragoniy ibn Amir Tarag‘ay ibn Amir Burqul bo‘lgan bu buyuk tarixiy shaxs o‘rta asrning yirik davlat arbobi, buyuk sarkarda, kuchli va markazlashgan davlat asoschisi, ilm-fan va madaniyat homiysidir. Yozma manbalarda u Sohibqiron, Buyuk sarkarda, uch qit’a hukmdori, Yevropa adabiyotida esa Tamerlan, Temurlang nomlari bilan ta`riflanadi. Amir Temurning onasi Takinaxotun buxorolik mashhur faqih Toj ash-sharia (shariat toji) taxallusi bilan mashhur bo‘lgan Ubaydulla ibn Mas`udning avlodi (1350-yil vafot etgan) edi. Uning otasi Amir Tarag‘ay barlos urug‘ining oqsoqolilaridan bo‘lib, Chig‘atoy ulusining e`tiborli beklaridan hisoblangan. Uning ajdodlari esa Chig‘atoy saroyi mulozimlari qatoridan o‘rin tutgan. Ular Kesh va Nasaf viloyatida o‘z mulklariga ega bo‘lgan va bu yurtda hokimlik qilgan. Shu boisdan Amir Temurning otasi Amir Tarag‘aybek ham yilda bir marotaba Ili daryosi bo‘yida xon tomonidan chaqiriladigan el-yurt bek va biylarining umum qurultoyiga taklif etilar va bunday yig‘inlarda qatnashardi.

Yoshlik yillari Amir Temurning yoshligi ona yurti Keshda kechdi. Yetti yoshga to‘lgach, otasi uni o‘qishga beradi. U yoshlik chog‘laridanoq chavandozlik

va ovga ishqiboz bo‘lib, kamondan nishonga o‘q uzish, ot choptirish turli mashq va harbiy o‘yinlar bilan mashg‘ul bo‘lishni yoqtirar edi. Shu asnoda Amir Temur tulporlarni saralab ajrata oladigan mohir chavandoz va dovyurak bahodir sifatida voyaga yetadi. Uning atrofida bolalikdagi do‘stlari va maktabdoshlari to‘planishib, birgalikda mashq qilar, musobaqalarda ishtirok etishar, asta-sekin navkar bo‘lishib, harbiy guruhga birlashib shakllana borishadi.

Bu guruh orasida Abbos Bahodir, Jahon Shohbek, Kimori Inoq, Sulaymon Shohbek, Sayfuddinbek va boshqalar bo‘lgan. Keyinchalik ular Amir Temurning safdoshlariga aylanib, uning qo‘shinida lashkarboshilik darajasiga ko‘tarilganlar. Amir Temur tabiatan og‘ir, bosiq, teran fikrli va idrokli, samimiyatni tezda fahmlab oladigan inson bo‘lgan. Shu tufayli o‘spirinlik chog‘laridayoq tengqurlaridan sadoqatli do‘stlarni atrofga jalb qila olgan. O‘zining ilk harbiy faoliyatini Amir Temur qo‘l ostidagi navkarlari bilan ayrim viloyat amirlariga xizmat qilishdan boshlagan. Ularning o‘zaro kurashlarida mahorat va oliyhimmatlik Amir Temurning shuhratini oshirib, uning dong‘i butun Qashqadaryo vodiysi, xususan Kesh viloyatiga yoyilgan.

Amir Temur aql-zakovati, shijoati va jasorati to‘g‘risidagi shuhrat uni Movarounnahrning nufuzli amirlaridan avval Joku Barlos, so‘ngra Amir Qazog‘on (1346-1358) bilan yaqinlashtirgan. Otasi Amir Temurni avval (1352) Amir Joku Barlosning qizi Turmish Og‘oga uylantiradi. 1362-yilda Amir Temur Qazog‘onning nabirasi, Amir Husaynning singlisi Uljoy Turkon Og‘oni o‘z nikohiga oladi. Keyingi nikoh tufayli Balx amiri bilan bog‘langan qarindoshlik aloqalari shubhasiz Amir Temur bilan Amir Husayn o‘rtasidagi ittifoqni yuzaga keltirdi va Mo‘g‘ullarga qarshi jiddiy kurash boshlandi.

Biroq Movarounnahr aholisi mog‘ullarga qarshi kurashga jur`at eta olmaydilar. Kesh viloyatining hukmdori Hoji Barlos Xurosonga qochadi. Mana shunday og‘ir pallada Amir Temur maydonga kiradi. Kuchlar teng emasligini hisobga olgan Amir Temur 1360-yilning boshida Tug‘luq Temur tomonidan Keshga yuborilgan beklar bilan kelishadi. Sharoit taqozosi bilan xon xizmatiga o‘tib, uning yorlig‘i bilan o‘z viloyatining dorug‘asi etib tayin etiladi. Biroq, ko‘p o‘tmay Movarounnahrning

humdori etib tayinlangan Ilyosxo‘ja bilan Amir Temur murosasi kelishmay qolishi natijasida 1361-yilning oxirida mamlakatni tark etib, Xorazmga yo‘l oladi.

Shunday bir sharoitda Amir Temur harbiy kuch to’play boshlaydi va siyosiy hokimyat boshiga keladi. Darhaqiqat, Temur Tarag‘aybek o‘g‘li siyosiy kurash maydoniga kirib kelgan XIV asrning 60 - yillarida mo‘g‘ullarning Chig‘atoy ulusida bir yarim asrlik hukmronligi davom etayotgan, mahalliy xalqlarga ularning zulmi, zug‘umi tufayli tushkunlik, parokandalik, bosh-boshdoqlik jarayoni hamon davom etmoqda edi. Jamiyat ozodlik va taraqqiyotga bo‘lgan manfaatlarini o‘zida mujassam etgan, xaloskor va yetakchiga mushtoq edi.

Ana shunday og‘ir vaziyatda yosh Temurbek Movarounnahrning siyosiy maydoniga kirib keldi. U mavjud vaziyatni aqlu zakovati ila to‘g‘ri baholab, ona-Vatanini mo‘g‘ullardan ozod qilish va “Millatning dardlariga darmon bo‘lish”ni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi. Biroq, Amir Temurning o‘z oldiga qo‘ygan orzusini amalga oshirishga Balx hokimi g‘arazgo‘y, hasadgo‘y Amir Husayn to‘sqinlik qiladi. U Amir Temurning barcha ishlariga doimo pand beradi.

Amir Temur kuchli, markazlashgan davlat barpo etish barobarida o‘z qudratini jahonga mashhur qilish, hududlarini kengaytirish, jug‘rofiy kengliklarga chiqish maqsadida XIV asrning 80-yillaridan boshlab ko‘plab harbiy yurishlar ham olib bordi. Uning davlati 1386-88 yillardagi “uch yillik”, 1392-1396 yillardagi “besh yillik” va 1398-1404 yillardagi “etti yillik” olib borilgan urushlar natijasida Eron, Kavkazorti hududlari, shimoliy Hindiston, Suriya, Iroq yerlari hamda Kichik Osiyoning katta yerlari hisobiga kengaydi. Shu tariqa qudratli saltanat vujudga keldi va uning dovrug‘i butun olamga yoyildi. Bu janglar ichida “Anqara janggi” alohida ahamiyat kasb etadi.

1399-1404-yillardagi yetti yillik urush, eng shiddatli va eng yirik janglardan bo‘lib, uning oqibatida Shomning Xalab, Kumis, Baalbek, Dimishq (Damashq) kabi yirik shaharlari va Iroqi Arabning Ubuliston o‘lkasi bilan Bag‘dod, shuningdek Turkiyaning kattagina qismi fath etiladi. Natijada ikki buyuk sarkarda: Sohibqiron Amir Temur bilan sulton Boyazid Yildirimlarning to‘qnashuvi muqarrar bo‘lib qoladi. Chunki tobora kuchayib borayotgan bu ikki turkiy davlatlarning har biri

ikkinchisi uchun nihoyatda kuchli raqibga aylangan edi. Bir tomondan, Yevropa ritsarlariga qaqshatqich zarba berib, Bolqon yarim oroli bo‘ylab, g‘arbga tomon o‘z hududlarini kengaytirayotgan Usmonlilar davlati uchun Amir Temurning markazlashgan kuchli davlatini qaror topishi qanchalik xavfli tuyulsa, Kichik Osiyoda barpo etilgan qudratli Usmonlilar davlatining kuchayishidan Amir Temur manfaatdor emas edi.

Amir Temur hayot-mamot yo‘lida Boyazid Yildirim bilan bo‘ladigan jangga qariyb ikki yildan ortiq tayyorlanadi. Nihoyat Rumga yuzlanib, avval Qamoh qal`asini fath etadi, so‘ngra Anqara shahrini qamalga oladi. Amir Temur bilan Sulton Boyazid qo‘shinlari o‘rtasidagi so‘nggi va hal qiluvchi jang 1402-yil 20-iyulda Anqara yaqinida Chibukobod mavzeida sodir bo‘ladi. Bu jang tarixda “Anqara jangi” nomi shuhrat topadi. Uch kun davom etgan bu jangda Amir Temur g‘alaba qozondi. Amir Temur Usmonli turklari davlatini saqlab qoldi va Boyazid vorislariga muruvvat qo‘lini cho‘zdi.

Xulosa o’rnida shuni aytish lozimki, buyuk fotihlar hayotida juda ko’plab jangu jadallarda bo’ladilar, nomlarini tarixning o’chmas satrlarida qoldirish uchun mahorabalarda o’zlarining jangovar taktika va tajribalarini ishga solib, g’alabalarni qo’lga kiritadilar. Shunday zotlardan biri Sohibqiron Amir Temurning nomi ham g’olibona yurishlarning ijrochisi sifatida moziy sahifalaridan yorqinlik bahsh etmoqda. Bu harbiy yurishlar ichida “Anqara jangi” nomi bilan mashhur voqealik Sohibqironning haqiqiy qomondon, kuchli strateg va zakovatli siyosatdon kabi sifatlarini yana bir bor namoyon etganligi bilan tarixdan alohida o’rin oldi.

Adabiyotlar:

1. Temuriylar tarixi davlat muzeyining ochilishi marosimida so’zlagan nutq, 1996- yil 18-oktyabr, Toshkent. /

I.Karimov “Yangicha fikrlash va ishlash - davr talabi” 5-tom- T:, 1997.

2. Muiniddin Natanziy “Muntaxab ut-tavorixi Muiniy” T. “O’zbekiston”-2011.

3. Vlaxov S., Florin S. Neperevodimoe v perevode. - M.: Mejdunarodnыe otnosheniya. - 1980.

4. Omonulla Bo’riev “Sohibqiron Amir Temur” T. “O’zbekiston”-2011.

5. M.I.Ivanov “ikki buyuk sarkarda: Chingizxon va Amir Temur, harbiy san’ati, strategiyasi va taktikasi”. Yangi asr avlodi. Toshkent. 2018.

6. Hamdam Sodiqov “Amir temur hayotidagi g’aroyibotlar”. “Art Flax” Toshkent-2007.

7. Lyusen Keren “Amir Temur saltanati” T. Ma’naviyat 1999-yil.